QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI

Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

E-mail: ramshidxujaqulov82@icloud.com

ORCID: 0009-0006-4677-7511

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamizda so'nggi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract. This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация. В данной статье описаны широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов к нашей республике за последние годы. При этом были изучены такие направления, как подпольная торговля и общепит, перевозки автотранспортом, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, сформированы научно-практические выводы и предложения по зарубежному опыту и его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Jahon miqyosida budget siyosatini rivojlantirish mahalliy budgetlar daromadlar bazasini tizimli ravishda kengaytirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelmoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy budgetlarning solikli daromatlari yuqori rentabellik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Xususan, mahalliy budget daromadlarining yuqori ulushi Janubiy Koreyada 22,2 foiz, Portugaliyada 39 foiz, Buyuk Britaniyada 33 foiz hamda Norvegiyada 58 foizni tashkil etadi.

Shu sababli, xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda iqtisodiyotda mahalliy budgetlar daromadlar bazasini kengaytirish, belgilangan tartibda va o'z vaqtida soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish, shuningdek, soliqlarni undirish mexanizmlarini ilmiy asosda rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xalqaro soliqqa tortish tizimi, soliq tamoyillari hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali mahalliy budgetlar daromadlar bazasini mustahkamlash, mahalliy soliqlarni undirish mexanizmlarini ilmiy asoslangan yangi yondashuvlar asosida belgilash va ularni amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan



biri bo'lib qolmoqda. Shu bois hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ularda faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilarning daromadlarini ko'paytirish hamda soliq siyosatida ta'sirchanlik muhitini kuchaytirish yo'nalishida ilmiy izlanishlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, soliq va soliqdan tashqari tushumlarning o'sishini ta'minlash uchun qo'shimcha zaxiralarni aniqlash va jalb etish nafaqat mahalliy budjetlarni to'ldirish masalasi, balki zamonaviy huquqiy makonni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ijtimoiy yo'naltirilgan shahar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Rossiyalik iqtisodchi Vlasova (2015)ning fikriga ko'ra, mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini oshirish davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada faol joriy etishni, soliq imtiyozlarini qo'llashni, byurokratik jarayonlarni tezlashtirish va soddalashtirish orqali biznes yuritishni maksimal darajada qulaylashtirishni, noishlab chiqarish xarajatlari ulushini qisqartirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kengaytirishni talab etadi. Muallif ta'kidlashicha, bunday chora-tadbirlar mintaqaviy budjet siyosati samaradorligining oshishiga olib keladi va mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan kompleks qarorlar uzoq muddatli istiqbolda butun mintaqa iqtisodiyoti uchun sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir rossiyalik iqtisodchi, professor Suxarev (2020) barcha darajadagi budjet daromadlari manbalarini tubdan qayta ko'rib chiqish, budjet mexanizmini rag'batlantiruvchi xarajatlarni samarali faoliyat natijalari bilan bog'lashga asoslangan yangi tizimni joriy etish zarurligini asoslaydi. Jumladan, Brizgalin (2002) o'z tadqiqotlarida soliq tushumlari bilan soliq yuki o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, uning soliq tushumlarini prognozlashga ta'sirini baholagan. Panskov va Knyazev (2003) esa budjetni prognozlashtirish jarayonida soliq tushumlarini oldindan baholashning muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O'zbekistonlik olimlardan Xudoyqulov (2019) o'z tadqiqotlarida ekonometrik usullar yordamida davlat budjeti jami daromadlarining 2018-2023-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini aniqlagan. Shuningdek, PhD U. Pardaev davlat budjeti daromadlarini prognozlash masalalarini o'rgangan bo'lsa, iqtisodiyot fanlari doktori Urmonov (2019) 2018-2020-yillarga mo'ljallangan yagona soliq to'lovining soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqqan.

Bizning fikrimizcha, budjet daromadlari tarkibida soliqlarning ulushi ortib borishi soliq to'lovchilar sonining o'sishi, soliq imtiyozlari hajmi, soliq qarzlari hamda ortiqcha (oldindan) to'lovlar dinamikasidagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Soliq tizimi korxonalarining raqobatbardoshligiga turli yo'nalishlar orqali ta'sir ko'rsatib, xususan, investitsiya va innovatsion jarayonlarga ta'sir etish orqali ularning bozor sharoitidagi raqobat imkoniyatlarini bilvosita shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Mamlakatimizda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari tizimi hududiy ehtiyojlarni qondirish hamda hududlarning iqtisodiy rivojlanishini markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan uyg'un holda ijro etish imkonini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni hamda soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur".

So'nggi yillarda mahalliy budjetlar uchun yangi soliq manbalarini izlab topish, soliqqa tortishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mavjud soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mahalliy soliqlarni undirish bilan bog'liq muammolarning real holati hali to'liq va tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Shu bois mahalliy budjetlarning solikli daromadlari shakllanishi hamda soliqqa tortish bazasini chuqur o'rganish va tahlil qilish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Globalashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida to'g'ri soliqlarni hisoblash metodologiyasini takomillashtirish davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Amaldagi soliq hisob-kitob mexanizmlarining murakkabligi, inson omiliga yuqori darajada bog'liqligi hamda soliq bazasini aniqlashdagi kamchiliklar to'g'ri soliqlar bo'yicha tushumlarning to'liq undirilmaligiga olib kelmoqda.

To'g'ri soliqlarni hisoblashdagi asosiy muammolar:

- soliq bazasini aniqlashda aniqlik va shaffoflikning yetishmasligi;



- soliq imtiyozlari va preferensiyalarning haddan tashqari ko'pligi;
- soliq hisobotlarining qo'lda yoki yarim avtomatik shakllantirilishi;
- yashirin iqtisodiyotning soliq bazasiga salbiy ta'siri;
- nazorat resurslarining samarasiz taqsimlanishi.

Takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari:

- soliq bazasini aniqlashning yagona va raqamlashtirilgan metodologiyasini joriy etish;
- moliyaviy hisobotlar, bank va kadastr ma'lumotlarini integratsiyalash;
- to'g'ri soliqlarni hisoblashda avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish;
- riskka asoslangan hisoblash va nazorat mexanizmlarini joriy etish;
- sun'iy intellekt asosida soliq bazasini prognozlash va anomalialarni aniqlash.

Takomillashtirishning kutilayotgan natijalari:

- to'g'ri soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning aniqligi oshadi;
- soliq ma'murchiligi xarajatlari qisqaradi;
- soliq tushumlarining barqarorligi ta'minlanadi;
- yashirin iqtisodiyot ulushi kamayadi;
- soliq tizimining adolatligi va shaffofligi kuchayadi.

Mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash borasida mahalliy hokimiyatlarning soliq undirish va soliq bazasini kengaytirishga bo'lgan manfaatdorligini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Oddiy qilib aytganda, hududlarning soliq siyosati va soliq salohiyati, avvalo, tegishli darajadagi budjetga real ravishda yo'naltirilishi mumkin bo'lgan daromadlar hajmini anglatadi.

Huquqiy nuqtayi nazardan soliq siyosati amaldagi qonunchilikka muvofiq budjetga undirilishi lozim bo'lgan soliqlar va yig'implarning to'g'ri hisoblanishi hamda o'z vaqtida undirish darajasini ifodalaydi. Umumiy ma'noda esa, bu hududlarning rivojlanish imkoniyatlarini, soliqqa tortiladigan resurslarning jami hajmini va ularning budjet daromadlariga ta'sirini aks ettiradi. Ko'plab hollarda soliq salohiyati hududlarning soliq daromadlarining mahalliy budjetga tushiriladigan qismi sifatida ham talqin etiladi.

Mahalliy budjetlar uchun muhim daromad manbai bo'lishi mumkin bo'lgan salmoqli yer uchastkalari yer solig'idan ozod etilgan. Shu munosabat bilan ayrim soliq to'lovchilar uchun berilgan imtiyozlarning maqsadga muvofiqligini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, mahalliy budjetlarning yo'qotilgan solikli daromadlarini davlat budjeti hisobidan qoplash masalalarini ko'rib chiqish zarur. Xususan:

- yer to'lovlari hisobidan mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda mavjud muammolarni aniqlash va chuqur tahlil qilish;
- mol-mulkdan foydalanishni tartibga solish vositasi sifatida yer uchastkalarini ijaraga berish va ularni inventarizatsiya qilish;
- yer soliqlarini hisoblash va undirish vakolatlarini mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich berish;
- soliq to'lovlarini o'z vaqtida undirish va muammoli soliq munosabatlarini hal etish mexanizmlarini kuchaytirish.

Davlat budjeti daromadlarini prognozlash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- uzluksizlik tamoyili – prognozlash jarayonining doimiyligini ta'minlash;
- ko'p variantlilik tamoyili – turli prognoz variantlarini ishlab chiqish va optimalini tanlash;
- to'liqlik tamoyili – barcha qonunchilikda nazarda tutilgan daromadlarni to'liq hisobga olish;
- birlik tamoyili – barcha hududlar uchun yagona metodologik yondashuvni qo'llash;
- muvofiqlik tamoyili – prognoz ko'rsatkichlarini iqtisodiy rivojlanish parametrlariga moslashtirish;
- realizm tamoyili – hisob-kitoblarning asosliliigi va axborot ishonchligini ta'minlash;
- ehtiyotkorlik tamoyili – daromadlarni ortiqcha baholashning oldini olish.

Davlat budjeti daromadlari prognozlari, odatda, oylik (tezkor), choraklik, yillik va o'rta muddatli davrlar kesimida shakllantiriladi hamda soliq turlari va soliqdan tashqari tushumlarning yirik guruhlar bo'yicha prognozashtiriladi.

Taklifimiz: Foyda solig'i bo'yicha budjet daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Fpt = \sum_{i=1}^n (Tb_i - cur) \cdot (rTb_i)^i \cdot eTr \pm (Extrev)_i \pm (ChP)_i \pm (Extshadec)_i$$

Fpt – foyda solig'i prognozi;

i, n – to'lovchilar guruhlar;

Tbi-cur – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTbi – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsienti;

eTr – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

Extrevi – soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;



ChPi – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Bunda, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha kelgusi davr uchun iqtisodiy ko'rsatkichlari va moliyaviy oqimlari prognozi mavjud bo'lgan taqdirda ushbu to'lovchilar bo'yicha foyda solig'i prognozini hisoblashda mikro-simulyatsion usuldan foydalanilishi mumkin.

Taklifimiz aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha budget daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$F_{tt} = \sum_{i=1}^n (Tb)(i-cur) * (rTb)^i * eTr \pm (Extrev)_i \pm (ChP)_i + (Extshadec)_i$$

F_{tt} – aylanmadan olinadigan soliq prognozi;

i, n – to'lovchilar guruhlari;

Tb_{i-cur} – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTb_i – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsienti;

eTr – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

$Extrev_i$ – soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Taklifimiz Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha budget daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$F_{pit} = \sum_{i=1}^n (Tb)(i-cur) * (rTb)^i * eTr \pm (Extrev)_i \pm (ChP)_i + (Extshadec)_i$$

F_{pit} – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i prognozi;

i, n – to'lovchilar guruhlari;

Tb_{i-cur} – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTb_i – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsienti;

eTr – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

$Extrev_i$ – soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Taklif: Mol-mulk solig'i bo'yicha budget daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

a) yuridik shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha:

$$F_{propt} = \sum_{i=1}^n (Tb)(i-cur) * (rTb)^i * eTr \pm (Extrev)_i \pm (ChP)_i + (Extshadec)_i$$

F_{propt} – yuridik shaxslar mol-mulk solig'i prognozi;

i, n – to'lovchilar guruhlari;

Tb_{i-cur} – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTb_i – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsienti;

eTr – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

$Extrev_i$ – soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci – tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

b) jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha:

$$F_{ppt} = \sum_{i=1}^n ((Cv1)_i * tp + \sum_{i=1}^n ((Cv2)_i * tp + \sum_{i=1}^n ((Cv3)_i * tc))) \pm (Extrev)_i \pm (ChP)_i + (Extshadec)_i$$

F_{ppt} – jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i prognozi

i, n – hududlar

$Cv1_i$ – ko'p-qavatli uylarning kelgusi yildagi kadastr qiymati

$Cv2_i$ – yakka tartibdagi uylarning kelgusi yildagi kadastr qiymati

$Cv3_i$ – noturar-joylarni kelgusi yildagi kadastr qiymati

tp – jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi



Tc – yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi

Extrevi – soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli hudud bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi – tegishli hudud bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci – tegishli hudud bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Bunda, mol-mulk solig'i prognozini hisoblashda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shaharlar Kengashlari tomonidan soliq stavkalariga nisbatan kiritiladigan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlar inobatga olinmaydi.

Taklif: Yer solig'i bo'yicha budget daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

a) yuridik shaxslar yer solig'i bo'yicha:

$$Flt = \sum_{i=1}^n ((Dsum)^i \cdot ind) \pm (Extrev)_i \pm (ChP)_i + (Extshadec)_i$$

Flt – yuridik shaxslar yer solig'i prognozi

i, n – hududlar

Dsumi – yuridik shaxslar yer solig'ining joriy yilda hisoblangan summasi

Ind – yuridik shaxslarning yer solig'i stavkasi indeksatsiyasi

Extrevi – soliq-bojxona siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli hudud bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi – tegishli hudud bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci – tegishli hudud bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

b) jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha:

$$Fplt = \sum_{i=1}^n ((Ap)^i \cdot (tp)_i) \pm (Extrev)_i \pm (ChP)_i + (Extshadec)_i$$

Fplt – jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i prognozi

i, n – hududlar

Api – jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan yer maydoni

Tpi – hudud bo'yicha o'rtacha yer solig'i stavkasi

Extrevi – soliq-bojxona siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli hudud bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi – tegishli hudud bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci – tegishli hudud bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Yer solig'i prognozini hisoblash jarayonida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman hamda shahar Kengashlari tomonidan soliq stavkalariga nisbatan belgilangan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlar inobatga olinmaydi. Bu holat prognoz ko'rsatkichlarining real hududiy sharoitlarni to'liq aks ettirmasligiga olib kelishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlardan soliqlarni undirish mexanizmi asosan hisobvaraqlar-fakturalar va bank hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Bank hisobvaraqlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar esa soliqlarni naqd pul, plastik kartalar yoki mobil ilovalar orqali to'lash imkoniyatiga ega. Ushbu jarayonda, ayniqsa, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning yig'iluvchanligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarga soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qulay sharoitlar yaratilmas ekan, soliqlarni o'z vaqtida to'lash intizomi sustlashib, boqimandalik kayfiyati saqlanib qolishi mumkin.

Mahalliy soliqlarni undirish mexanizmida soliq to'lovchilarni toifalarga (pog'onalariga) ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv mahalliy budget daromadlarini barqaror shakllantirish va ularni takomillashtirishga xizmat qiladi. Mahalliy soliqlar va yig'implarning undirilishiga ta'sir qiluvchi omillar yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliqlar yig'iluvchanligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Natijada davlat o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Umuman olganda, mahalliy soliq to'lovchilar tomonidan to'lanmagan mablag'lar hududlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda soliqlarni undirishda zamonaviy axborot bazalaridan foydalanish zaruratini kuchaytiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish jarayonida mahalliy soliqlar va yig'implarni ayrim omillar ta'siri ostida undirish imkoni bo'lmagan hollarda soliq qarzdorligi yuzaga keladi. Bu esa soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatini pasaytiradi va mahalliy budget daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Hududlarning o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishi uchun zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi soliqlar va budjetlararo transfertlarni taqsimlash jarayonida amalga oshiriladi. Bunda hududlar daromadlarini tenglashtirish maqsadida moliyaviy resurslar qayta taqsimlanadi. Soliqlarni budjet tizimi darajalari bo'yicha taqsimlashda mahalliy soliqlarning davlat soliqlariga nisbatan ahamiyati alohida e'tiborga molikdir. Mahalliy soliqlar orqali davlat xizmatlarida imtiyozlar tamoyilining ustuvorligi ta'minlanadi hamda mahalliy hokimiyat organlari aholining manfaatlarini ko'zlab, rezidentlar hisobidan tushadigan daromadlar orqali moliyalashtirilishi zarur.

Mahalliy hokimiyat organlari uchun mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida mahalliy soliq tushumlarining barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy daromatlarni shakllantirishda soliqlarning yetakchi roli mavjud bo'lsa-da, mamlakatimizda mahalliy soliqlarni shakllantirish amaliyoti ko'plab hollarda ushbu sohadagi nazariy ishlanmalarga to'liq mos kelmaydi.

Amaliyotda mahalliy soliqlar tarkibidagi mol-mulk solig'i bilan bog'liq muammolar ham tez-tez uchraydi. Jumladan, ommaviy baholash tizimining yetarli darajada joriy etilmaganligi, yer va mol-mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishdagi kamchiliklar, mulk solig'ini boshqarish va uning to'lanishini nazorat qilish mexanizmlarining takomillashtirilmaganligi ushbu muammolar sirasiga kiradi. Shu bois mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mol-mulkni inventarizatsiya qilish va yagona mulk reyestrlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha amaldagi soliq stavkalari ko'p hollarda bozor iqtisodiyoti mezonlariga to'liq javob bermaydi. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortilmaydigan ko'plab tugallanmagan qurilish obyektlarining mavjudligi ham muhim muammo hisoblanadi. Asosiy muammo shundaki, soliq organlari budjetga tushmaydigan va hisobot obyektiga kirmaydigan soliqlarni undirish bo'yicha yetarli rag'batga ega emas.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, soliq organlari ko'pincha soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalangan budjet oldidagi qarzlarini asosan umumdavlat soliqlari hisobidan qoplashga intiladi. Shu bilan birga, mahalliy soliqlarni undirish nuqtayi nazaridan soliq organlarining moliyaviy mustaqilligi yetarli darajada ta'minlanmagan. Tadqiqotlar mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash masalalariga kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. Bu borada muhim yo'nalishlardan biri mahalliy soliqlar va yig'implarni belgilash tamoyillarini chuqur o'rganish hisoblanadi.

Mahalliy budjetlarga ajratiladigan subsidiyalarni qisqartirishning muhim yo'nalishlaridan biri subsidiyalash mexanizmi o'rniqa tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha tabaqalashtirilgan standartlardan keng foydalanishdir. Shuningdek, mamlakatimizda yer va mol-mulk solig'ini undirishning amaldagi tartibini hududiy hokimiyat organlari hamda mas'ul idoralarning axborot tizimlari o'rtasidagi idoralararo integratsiya orqali takomillashtirish zarur, deb hisoblaymiz.

Shu nuqtayi nazardan, to'lanmay qolgan soliqlarni aniqlash va undirish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida hududiy hokimlik organlari bilan integratsiyalash asosiy taklif sifatida ilgari suriladi. Ushbu texnologiyalar orqali:

- soliq tizimi ishtirokchilarining yagona reyestrini to'liq yuritish;
- soliq tushumlarini hamkorlikda undirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish;
- soliq va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida tezkor va ishonchli axborot almashuvini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa soliq tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amaldagi tahrir:

a) Davlat budjeti daromadlari prognozini choraklar va hududlar kesimida taqsimlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari bilan amalga oshiriladi;

b) Davlat budjeti daromadlari prognozini hisoblash Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali amalga oshiriladi hamda ushbu axborot tizimi Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Hisob palatasining axborot tizimlariga integratsiya qilinadi.

Taklif etilayotgan tahrir:

a) 2026-moliya yilidan boshlab Davlat budjeti daromadlari prognozini choraklar va hududlar kesimida taqsimlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari asosida amalga oshiriladi;

b) 2027-moliya yilidan boshlab Davlat budjeti daromadlari prognozini hisoblash Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali amalga oshiriladi hamda mazkur axborot tizimi Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Hisob palatasining axborot tizimlari bilan to'liq integratsiya qilinadi.

Taklifni asoslantirish

Davlat budjeti daromadlari prognozini hisoblash jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish doirasida Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi, Hisob palatasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimlarini o'zaro bog'lash va integratsiya qilish muhim texnik bosqich hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ushbu tizimlar turli



texnologik platformalarda faoliyat yuritayotgani, ma'lumotlar formatlari hamda axborot xavfsizligi protokollarining bir-biridan farq qilishi ularni yagona axborot muhitiga birlashtirish uchun qo'shimcha texnik, tashkiliy va huquqiy choralarni talab etadi.

Xususan, quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur:

- mavjud axborot tizimlari arxitekturasi va ma'lumotlar bazalarini kompleks tahlil qilish hamda ularni yangilangan Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Hisob palatasi axborot tizimlariga muvofiqlashtirish;
- ma'lumotlar almashinuvi uchun zamonaviy protokollarni (API, web-servislar) ishlab chiqish va ularni axborot xavfsizligi talablariga moslashtirish;
- yangi avtomatlashtirilgan modullar faoliyatini sinovdan o'tkazish va ularni amaliy ekspluatatsiyaga joriy etish;
- integratsiya natijasida budjet daromadlari prognozi va ijrosi bo'yicha real vaqt rejimida yangilanib boradigan axborotlarni shakllantirish imkoniyatini yaratish.

Shuningdek, axborot tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish, ma'lumotlarning aniqligi va o'zaro muvofiqligini ta'minlash hamda axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati tufayli mazkur jarayonni 2026-yil davomida to'liq yakunlash amaliy jihatdan murakkab hisoblanadi. Shu sababli, davlat axborot tizimlarini to'liq texnik integratsiya qilish va ularning barqaror hamda ishonchli ishlashini ta'minlash maqsadida ushbu jarayonni 2027-moliya yilidan boshlab to'liq joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi, 2020. 640 b.
2. Брызгалин А.В. Налоговая оптимизация: принципы, методы, рекомендации. Москва, 2002. 54 с.
3. Власова Ю.А., Абрамова А.И. Проблемы укрепления доходного потенциала региональных бюджетов в России (на примере Калужской области) // Креативная экономика. 2015. Т. 9. № 10. С. 1255-1276.
4. Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложение: учебник. Москва: МЦФЭР, 2003. 61 с.
5. Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложения: монография / под науч. ред. д.э.н., проф. В.С. Барда. Москва: Издательство «Палеотип», 2004. С. 77-78.
6. Сухарев О.С. Инвестиции в транзакционный сектор и в финансовые активы: влияние на экономический рост // Финансы: теория и практика. 2020. Т. 24. № 3. С. 60-80.
7. Urmonov J. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2019. B. 27; 218-220; 225-230. URL: <http://diss.natlib.uz>
8. Xudoyqulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2019. B. 14-16; 20-21; 28-29.
9. Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich. Byudjet daromadlarini shakllantirishda to'g'ri soliqlarning ahamiyatini oshirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
